

**UNIVERSAL XARAKTERISTIKALAR DAN FOYDALANIB  
DVIGATELNING ISH HAJMINI O'ZGARTIRISH ORQALI UNI  
BOSHQARISHDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI TADQIQ  
ETISHNING HISOB-EKSPEIMENTAL USULI.**

**A.Khusanjonov, B.Siddiqov, J.Asqarov**  
*Ferghana polytechnic institute*


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada universal xarakteristikalardan foydalanim dvigatelning ish hajmini o'zgartirish orqali uni boshqarishda samaradorlik ko'rsatkichlarini tadqiq etishning hisob-eksperimental usuli tahlili keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** avtomobil, dvigatel, samaradorlik, yonilg'i, ekologiya.

**Abstract:** This article provides an analysis of a computational-experimental method for researching efficiency in controlling an engine by modifying its operating capacity using universal characteristics.

**Key words:** Automobile, engine, efficiency, ecology, fuel.

Dvigatel ish hajmini o'zgartirish orqali uni boshqarish usulining samaradorligi bo'yicha ishonchli natijalarni albatta, eksperimental tadqiqotlar orqali olinadi. Biroq, ularni amalga oshirilishi anchayin qimmat bo'lishi, murakkab va uzoq muddat talab etilishi tufayli, usulni qo'llashning maqsadga muvofiqligini oldindan baholash kerak bo'ladi. Ushbu kichik yuklamali rejimlarda silindrلarning bir qismini o'chirish usulining ahamiyati shundan iboratki, bunda, qolgan (faol ishlayotgan) silindrлar katta yuklamani qabul qiladi va natijada dvigatelning iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilanadi. To'la hajmdagi va silindrлarining bir qismi o'chirilgan digatellarning tezlik xarakteristikalari 1-rasmda tasvirlangan [1]. Ko'rinish turibdiki, turli miqdordagi faol ishlayotgan silindrli dvigatellarning tezlik xususiyatlarini tasvirlash uchun dvigatellarni boshqarishning turli holatlaridagi o'rtacha samarali bosimni ( $p_e$ ) turli qiymatlari bilan ordinatadagi xarakteristikalar bo'yicha grafiklar hosil qilish kerak.



1–rasm. *Daimler-Benz* ( $i \cdot V_h = 5$  L.) firmasining V-simon benzinli dvigatelini kiz, olti va to’rtta silindrlar bilan uni boshqarishdagi (yoqilg’i uzatishni o’chirish va klapanlarni yopiq holatida to’xtatib qo’yish) ish jarayoni xarakteristikalari [1].

Shuni ta’kidlash kerakki, xoh alohida silindr xoh to’la hajmli dvigatel silindrlari teng yuklama oladigan bo’lsa o’rtacha samarali bosim ( $p_e$ ) qiymati qo’llanilgandagi kabi silindrlarni o’chirilganda o’rtacha samarali bosim ( $p_e$ ) ordinatalarini qo’llash o’zining fizik mohiyatini yo’qotadi. Dvigatel silindrlarining bir qismini o’chirishda u ishlab chiqargan momentni, quvvatni va bajarilgan ishlarni saqlab turishi lozim, bunda dvigateli solishtirma bajargan ishi ordinatasi ( $L_{y\Delta}$ ) yordamida ko’rsatkichlarni (masalan, samaradorlikni) taqqoslash amalga oshiriladi [2]. Solishtirma bajarilgan ish dvigatel to’la hajmining ( $L_{\text{полн.}}$ ) ushbu dvigatel silindrlari bir qismi o’chirilgandagi aktiv ishlayotgan silindrlarining umumiyligi hajmiga nisbatini anglatadi. Dvigateli boshqarish vaqtida uning ish hajmi  $i$  dan  $z$  gacha ishlayotgan faol silindrlar soniga qarab o’zgaradi.

$$L_{y\Delta} = L_{\text{полн.}} / (i \cdot V_h), \text{ J/dm}^3 \quad (1.1)$$

To’la hajmli dvigatel uchun

$$L_{y\Delta} = L_{\text{полн.}} / (z \cdot V_h), \text{ J/dm}^3 \quad (1.2)$$

Silindrlarining bir qismi o'chirilgan dvigatel ya'ni faol silindrlarining soni  $z$  ga teng bo'lgan dvigatellar uchun

$$L_{\text{полн.}} = 500 \cdot p_e \cdot i \cdot V_h, \text{ J.} \quad (1.3)$$

2-rasmda ko'rsatilganlarga muvofiq, o'rtacha samarali bosim ( $p_e$ ) ordinatalarini yoki qo'shimcha ravishda solishtirma bajarilgan ish ( $L_{yд}$ ) ordinatasi o'zgartiriladi. Bu usulda aynan ushbu ko'rsatkich boshqariluvchi (dvigatelning boshqariluvchi ish hajmi – faol silindrlar ish hajmlarining yig'indisi) hisoblanadi.

Dvigatelning universal xarakteristikalari effektiv moment ( $M_e$ ) hamda chastota ( $n$ ) Bu holatda ( $M_e$  orqali) dvigatelning to'la ish hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$L_{\text{полн}} = 2 \cdot \pi \cdot M_e, \text{ J.} \quad (1.4)$$

Solishtirma ish esa quyidagicha bo'ladi

$$L_{yд} = 2 \cdot \pi \cdot M_e / z \cdot V_h, \text{ J/dm}^3, \quad (1.5)$$


Bu yerda  $z$  – faol (ishlayotgan) silindrlar soni;  $V_h$  – bitta silindrning ish hajmi,  $\text{dm}^3$  [39, 45, 47].

KамАЗ – 7406 ( $V_h = 1,36 \text{ dm}^3$ ,  $i \cdot V_h = 10,85 \text{ dm}^3$ ) dizelining barcha faol ishlayotgan sakkiz silindri kichik yuklamalarda ( $n = 1200 \text{ min}^{-1}$  da  $M_{e8} = 80 \text{ N}\cdot\text{m}$  effektiv burovchi moment bilan) ishlayotgan bo'lsin. Ushbu dizel dvigatelinining to'la hajmli ish jarayonida (ya'ni faol ishlayotgan silindrlar soni  $i=8$ ) bajaradigan to'la ishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$L_{\text{полн}} = 2 \cdot \pi \cdot M_e = 2 \cdot \pi \cdot 80 = 503 \text{ J.} \quad (1.6)$$

Ushbu rejimda huddi shu digatelning ishlayotgan barcha  $i$  silindrlarining solishtirma bajargan ishi quyidagi qiymatni tashkil etadi

$$L_{yд} = L_{\text{полн.}} / (i \cdot V_h) = 46,3 \text{ J/dm}^3 \quad (1.7)$$



2-rasm.  $n = 1200 \text{ min}^{-1}$  va bir xil kichik yuklamalarda (to’la yuklamaning 10 % miqdorida) sakkiz silindrli KamAZ-7406 dizel dvigatelini faol ishlayotgan ilindrlari soni  $z = 8, 6, 4, 2, 1$  bo’lganda,  $L_{уд} - n : x$  koordinatalari bo'yicha uning universal xarakteristikalarini qurish [3].

Ushbu holatda  $g_e = 370 \text{ g}/(\text{kWsoat})$  (2-rasm). Ushbu dizel dvigatelinig faol ishlayotgan silindrleri soni  $z = 6, 4, 2$  bo’lganda, bir xil rejimda (bir xil aylanishlar chastotasi va tashqi yuklama bo'yicha) uning yoqilg'i sarfi qanday bo'lishini baholaymiz.

Dvigateli faol silindrleri soni  $z < i$  bo’lganda ham, uning to’la bajargan ishi (503 J) bilan bir xil ish bajarishi kerak. Ushbu barcha holatlarda dvigatel 80 N·m qiymatdagi burovchi momentni ( $M_e$ ) hosil qiladi, ya’ni to’la yuklamaning 10% ni tashkil etadi.

Natijada:

$$z = 6 \text{ bo’lganda}, \quad L_{уд.6} = 503/(1,36 \cdot 6) = 503/8,16 = 61,6 \text{ J/dm}^3; \quad (1.8)$$

$$z = 4 \text{ bo’lganda}, \quad L_{уд.4} = 503/(1,36 \cdot 4) = 503/5,44 = 92,5 \text{ J/dm}^3; \quad (1.9)$$

$$z = 2 \text{ bo'lganda, } L_{y\ddot{d},2} = 503/(1,36 \cdot 2) = 503/2,72 = 185 \text{ J/dm}^3; \quad (1.10)$$

Universal xarakteristikalaridan (2.2.2 – rasmida keltirilgan) foydalanib, turli xil miqdordagi aktiv silindrlar sonida(buni natijasida dvigatelni turli xil solishtirma bajargan ishi ) dvigatelning solishtirma effektiv yoqilg'i sarfi hamda quyidagi munosabat orqali aniqlanadigan solishtrima yoqilg'i sarfining kamayishini topamiz:

$$\Delta ge = [(g_{e8} - g_{ez})/g_{e8}] \cdot 100\% \quad (1.11)$$

Dvigatelni ushbu rejimda bitta silindrda ishlash imkoniyati mexanik FIK orqali indikator ko'rsatkichlarini qayta hisoblash bilan tekshiriladi.

Universal (ko'p parametrlı) xarakteristikalarini qurish uchun eksperimentlar orqali yoki hisob-kitob yo'li bilan olingan natijalar bo'yicha olingan ko'pgina yuklama xarakteristikalaridan foydalilanadi. Dvigatelning yuklamalar xarakteristikalarini qurish usullari adabiyotlarda keltirilgan [4]. Ushbu ishda eksperimental usulda olingan natjalardan foydalilanigan. Shuning uchun ushbu qo'llanilgan usulni dvigatelning ish rejimlarini va uni boshqarishni matematik modellashtirishning hisob-eksperimetal usuli deb ataladi.

Dvigatel yuklamalari xarakteristikalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, silindrarga yoqilg'i uzatib berishni to'xtatib qo'yish kabi, qo'shimcha ravishda o'chirilgan silindrlni drossellanishini yo'qotish va ularning klapanlarini to'xtatish orqali samarali yoqilg'i sarfini kamaytirish mumkin. Chunki, o'chirilgan silindrarga yoqilg'i uzatib berishni to'xtatib qo'yish yuqori samara berishini ko'rish mumkin. Biroq, qolgan choralar kamroq darajada bo'lsa ham samara beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Гришин Д.К., Эммиль М.В. Исследование переходных процессов дизель – генератора, оснащённого системой отключения циклов // Вестник РУДН. Серия "Инженерные исследования". 2004. №1(8). С. 34-37.
2. Аношина Т.С. Повышение экономических и экологических качеств транспортного дизеля при работе на режимах малых нагрузок и холостых ходов: автореферат дисс. канд. техн. наук. Москва. 2014. 16 с.
3. Возможности повышения экономичности режимов малых нагрузок двигателя ВАЗ-2118. / Патрахальцев Н.Н. [и др.] // Автомобильная промышленность. 2014. № 4. С. 9-10.

4. Балабин В.Н. Регулирование транспортных двигателей отключением части цилиндров. Монография. М.: ГОУ «Учебно - методический центр по образованию на ж. д. транспорте». 2007. 143 с.